UMUMIY O‘RTA TA’LIMNI MOLIYALASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Nurmatov A.U *– Shahrisabz davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, g.f.f.d. (PhD)*
Xudoyberdiyev B.Sh – *Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*
Bozorova Nafisa Odina qizi– *Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*
Dusiyarova Muxlisa Baris qizi – *Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya. *Maqolada Qashqadaryo viloyati misolida umumiy o‘rta ta’limni moliyalashtirish holati va uning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Ta’lim xarajatlarining YaIM va davlat budjetidagi ulushi, bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan mablag‘ hamda moliyalashtirishning hududiy xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, ta’lim infratuzilmasiga yo‘naltirilgan mablag‘larning inson kapitali va hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’siri yoritilgan.*

Abstract. *The article analyzes the state of general secondary education financing and its economic efficiency, using the Kashkadarya region as a case study. It examines the share of education expenditures within GDP and the state budget, per-pupil funding, and regional financing characteristics. Additionally, the article highlights the impact of funds allocated to educational infrastructure on human capital and regional economic development.*

Аннотация. *В статье анализируется состояние финансирования общего среднего образования и его экономическая эффективность на примере Кашкадарьинской области. Изучается доля расходов на образование в ВВП и государственном бюджете, сумма на одного учащегося, а также региональные особенности финансирования. Подчеркивается также влияние средств, выделяемых на образовательную инфраструктуру, на человеческий капитал и региональное экономическое развитие.*

Kalit so‘zlar: *Umumiy o‘rta ta’lim, moliyalashtirish, ta’lim xarajatlari, iqtisodiy samaradorlik, yalpi ichki mahsulot, davlat budjeti, bir o‘quvchiga xarajat, ta’lim infratuzilmasi, inson kapitali.*

Keywords: *General secondary education, financing, education expenditures, economic efficiency, gross domestic product, state budget, expenditure per student, educational infrastructure, human capital.*

Ключевые слова *Общее среднее образование, финансирование, расходы на образование, экономическая эффективность, валовой внутренний продукт, государственный бюджет, расходы на одного учащегося, образовательная инфраструктура, человеческий капитал.*

Bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim tizimining barqaror faoliyat yuritishi va uning zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlanishi jamiyatning intellektual salohiyati, mehnat resurslarining sifat tarkibi hamda hududlarning iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq. Ta’lim xizmatlarining sifati nafaqat pedagogik jarayonning mazmuni va o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatiga, balki ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, bino va inshootlarning holati, o‘quv

jihozlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, energiya ta’minoti va boshqa infratuzilmaviy omillarga ham bog‘liq. Shu sababli umumiy o‘rta ta’limni moliyalashtirish masalasi faqat ijtimoiy soha xarajatlari sifatida emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi investitsiya sifatida ham qaralishi lozim [1, 3, 5].

Ta’limga yo‘naltiriladigan moliyaviy mablag‘larning hajmi va ulardan foydalanish samaradorligi mamlakat hamda uning hududlarida inson kapitalining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biridir. Inson kapitali zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarishning muhim omili bo‘lib, aholining bilim darajasi, kasbiy ko‘nikmalari, mehnat unumdorligi va innovatsion faoliyatga moslashuvchanligi bilan tavsiflanadi. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichi esa inson kapitalining boshlang‘ich va fundamental asoslarini shakllantiradigan tizim hisoblanadi. Mazkur bosqichda olingan bilim va ko‘nikmalar keyingi kasbiy ta’lim, oliy ta’lim hamda mehnat faoliyatining samaradorligiga zamin yaratadi. Shuning uchun umumiy o‘rta ta’lim tizimiga sarflanadigan mablag‘larning hajmi, tarkibi va hududiy taqsimlanishini o‘rganish iqtisodiy geografik tadqiqotlar uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini rivojlantirish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholi sonining o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, hududlarda yangi turar joy massivlarining shakllanishi va demografik tarkibdagi o‘zgarishlar umumiy o‘rta ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabning ortishiga olib kelmoqda. Natijada mavjud maktablar tarmog‘ini kengaytirish, yangi ta’lim muassasalarini barpo etish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, maktablarni zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta’minlash hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Bu jarayon, o‘z navbatida, ta’lim xarajatlarini hududlar kesimida ilmiy asosda rejalashtirish va mavjud mablag‘lardan samarali foydalanish masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda [2,4].

Umumiy o‘rta ta’limni moliyalashtirish samaradorligini baholashda faqat jami ajratilgan mablag‘lar miqdorini aniqlash yetarli emas. Moliyalashtirishning real natijasini baholash uchun bir qator nisbiy va tarkibiy ko‘rsatkichlardan foydalanish zarur. Jumladan, ta’lim xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, davlat budjeti xarajatlaridagi salmog‘i, bir maktabga va bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan mablag‘ miqdori, ta’lim infratuzilmasining moddiy-texnik ta’minlanganlik darajasi kabi ko‘rsatkichlar ta’lim tizimining moliyaviy imkoniyatlarini hududiy jihatdan taqqoslash imkonini beradi. Ayniqsa, bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan xarajat ko‘rsatkichi hududlar o‘rtasidagi moliyalashtirish darajasini qiyosiy baholashda muhim ahamiyatga ega. Chunki umumiy mablag‘ miqdori yuqori bo‘lgan hududda o‘quvchilar sonining ko‘pligi sababli bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan xarajat nisbatan past bo‘lishi mumkin.


Qashqadaryo viloyati ushbu masalani hududiy jihatdan o‘rganish uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Viloyatda aholi sonining nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sishi, qishloq aholisi salmog‘ining yuqoriligi, aholi joylashuvining hududiy tafovutlari hamda ayrim tog‘oldi va tog‘li hududlarda aholi punktlarining tarqoq joylashuvi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari tarmog‘ining shakllanishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur xususiyatlar ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda hududiy yondashuvdan foydalanishni talab etadi. Chunki aholisi zich joylashgan hududlarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi maktablarning sig‘imini oshirish va mavjud infratuzilmani kengaytirishni talab qilsa, aholisi tarqoq joylashgan hududlarda maktablarning nisbatan kichik kontingent bilan faoliyat yuritishi, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini saqlash bilan bog‘liq xarajatlarning ortishi kuzatilishi mumkin.

Qashqadaryo viloyatida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari sonining o‘zgarishi ham ta’lim infratuzilmasiga bo‘lgan talabning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, viloyatda umumta’lim maktablari soni 2011-yildagi 1116 tadan 2024-yilda 1256 taga yetgan. Ya’ni, mazkur davrda maktablar soni 140 taga ko‘paygan. Bu o‘zgarish hududda ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabning o‘sishi bilan bir qatorda, ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish

uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish zaruratini ham ko‘rsatadi. Shu bilan birga, maktablar sonining ko‘payishi moliyalashtirish hajmini avtomatik ravishda samarali deb baholash uchun yetarli emas. Muhimi, ajratilgan mablag‘larning maktablar, o‘quvchilar va hududlar o‘rtasida qanday taqsimlanayotgani hamda ushbu mablag‘lar evaziga ta’lim xizmatlari sifati va infratuzilmaviy imkoniyatlarning qay darajada yaxshilanayotganini aniqlashdir. Ta’limni moliyalashtirish va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir necha yo‘nalishda ko‘rib chiqish mumkin. Birinchidan, ta’limga sarflangan mablag‘lar maktablarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi [2, 4]. Zamonaviy laboratoriyalar, kompyuter texnikasi, internet tarmoqlari, elektron ta’lim resurslari va boshqa o‘quv vositalari o‘quvchilarning bilim va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, ta’lim infratuzilmasiga investitsiyalar inson kapitalining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli istiqbolda bu jarayon malakali mehnat resurslarining shakllanishi, mehnat unumdorligining oshishi va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatlarining kengayishi bilan bog‘lanadi. Uchinchidan, ta’lim infratuzilmasining hududiy jihatdan oqilona joylashtirilishi aholining ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilaydi va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim xarajatlarini yalpi ichki mahsulot va davlat budjeti xarajatlari bilan bog‘liq holda tahlil qilish muhimdir. Ta’limga ajratilayotgan mablag‘larning YaIMdagi ulushi mamlakat iqtisodiyoti tomonidan ta’lim sohasiga yo‘naltirilayotgan resurslarning nisbiy miqyosini ifodalaydi. Biroq ushbu ko‘rsatkichni ta’lim tizimining yakuniy samaradorligi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. U faqat moliyaviy ustuvorlik darajasini ifodalaydi. Samaradorlikni aniqlash uchun moliyaviy resurslarning natijadorlik ko‘rsatkichlari, xususan, o‘quvchilar qamrovi, maktablarning moddiy-texnik ta’minoti, ta’lim sifati, bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar va boshqa indikatorlar bilan birgalikda tahlil qilish talab etiladi. Bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan mablag‘ miqdorini aniqlash ayniqsa

muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Ushbu indikator hududning demografik xususiyatlari va ta’lim tarmog‘ining moliyaviy yuklamasini birgalikda baholash imkonini beradi. Masalan, o‘quvchilar soni tez o‘sayotgan hududlarda mavjud moliyalashtirish hajmi saqlanib qolgan taqdirda bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan mablag‘ kamayishi mumkin. Aksincha, o‘quvchilar soni kam yoki kamayib borayotgan hududlarda maktab infratuzilmasini saqlash uchun doimiy xarajatlarning mavjudligi bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarning yuqorilashiga olib kelishi mumkin. Demak, ushbu ko‘rsatkichni hududlarning demografik va geografik xususiyatlari bilan birgalikda o‘rganish zarur. Qashqadaryo viloyatining turli hududlarida maktablar tarmog‘i, o‘quvchilar soni, aholi zichligi, transport imkoniyatlari va infratuzilmaviy ta’minot darajasining bir-biridan farq qilishi moliyalashtirish samaradorligini hududiy kesimda o‘rganishni taqozo etadi. Xususan, tog‘li va chekka hududlarda ta’lim muassasalarini saqlash, energiya va transport bilan ta’minlash, malakali pedagoglarni jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlar yuqori bo‘lishi mumkin. Aholi zich joylashgan hududlarda esa maktablarning sig‘imi, o‘quvchilar soni va ta’lim infratuzilmasiga tushadigan yuklama yuqori bo‘ladi. Shu sababli barcha hududlar uchun bir xil moliyalashtirish yondashuvidan ko‘ra, hududning demografik, iqtisodiy-geografik va infratuzilmaviy xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda davlat budjet xarajatlaridan umumta’lim maktablari uchun 54 trillion so‘m ajratildi. Bu davlat budjeti xarajatlarining 15,7 foizini, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 3 % ini tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonda umumta’lim maktablariga ajratilgan mablag‘lar va uning YAIMga nisbatan ulushi (yillar kesimida).

Bu raqamlar respublika bo‘yicha ta’lim sohasiga ajratilgan mablag‘ (84,3 trillion so‘m)ning katta qismini ya’ni 64 % ini tashkil etadi. Jahon bo‘yicha ham ta’limga ajratilgan mablag‘ning 60-70 % qismi umumta’lim muassasalariga ajratiladi. Shuningdek, UNESCO va Jahon Bankida ko‘rsatilgan metodikada ham o‘rtacha rivojlanishdagi davlatlarda moliyalashtirishda yalpi ichki mahsulotning 2,5-4 % qismi umumta’lim maktablariga ajratilishi o‘rtacha daraja qilib berilgan.

Ushbu moliyaviy resurslarning 70-72 foizi o‘qituvchilarga ish haqi to‘lashga yo‘naltiriladi, qolgan qismi esa binolarni joriy ta’mirlash, kommunal xizmatlar va boshqa texnik xarajatlarga sarflanadi. Innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari va metodik ta’minot uchun esa atigi 4-6 % atrofida mablag‘ ajratiladi. Bu esa maktablarning zamonaviy ta’lim talablariga mos holatda faoliyat yuritishini sezilarli darajada cheklaydi [6, 9].

Respublika bo‘yicha umumta’lim maktablariga ajratilgan mablag‘larning Qashqadaryo viloyatiga 1.5 trillion so‘m qismi to‘g‘ri kelgan holda, bu umumiy mablag‘ning 2,8 % iga teng. Dunyo bo‘yicha o‘rtacha umumta’lim muassasalari uchun ajratilgan mablag‘lar umumiy YAIMning 3,3 % qismini tashkil etib, rivojlanish xususiyatiga ko‘ra turli davlatlarda turlicha ko‘rsatkichga ega. Masalan,.

Tahlillarga ko‘ra, O‘zbekistonda umumta’lim maktablariga ajratilgan mablag‘larning umumiy qiymatini respublikadagi umumiy maktablar soniga

hisoblaganda, har bir maktabga o‘rtacha 4 mlrd 941 mln so‘m bo‘lgani holda, bu raqam Qashqadaryo viloyatida 1 mlrd 194 mln so‘mni tashkil etadi. Taqqoslash sifatida hududlar turlicha ko‘rsatkichga – Toshkent shahri 34 mlrd so‘m, Farg‘ona viloyati 2,1 mlrd so‘m, Samarqand viloyati 1,9 mlrd so‘m, Jizzax viloyati 0,9 mlrd so‘mga teng. Mamlakatda Qashqadaryo viloyati umumiy maktablar soni (1256 ta) bo‘yicha Samarqand viloyatidan (1335 ta) keyingi o‘rinda tursada, umumta’lim maktablari uchun ajratilgan umumiy mablag‘ jihatidan 8-o‘rinda, har bir maktabga to‘g‘ri keladigan mablag‘lar bo‘yicha 9-o‘rinda turadi. Bu mablag‘lardan har bir o‘quvchi uchun yillik ajratma respublika bo‘yicha 8 million so‘mni tashkil etadi. Bu o‘rtacha ko‘rsatkich bo‘lib, hududlar kesimida ham turlichadir. Masalan, Toshkent shahrida 30 mln so‘m, Jizzax viloyatida 3,2 mln so‘m, Qashqadaryo viloyatida 2,2 mln so‘mga teng.

O‘zbekistonda umumta’lim maktablarini moliyalashtirish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Davlat budjetidan ta’lim sohasiga ajratilayotgan mablag‘larning ko‘payishi maktablar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta’lim muassasalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish hamda zamonaviy o‘quv vositalari bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Xususan, Qashqadaryo viloyatida ham umumiy o‘rta ta’lim tizimini moliyalashtirish hajmi ortib borayotgani kuzatiladi. Viloyat maktablariga ajratilayotgan mablag‘lar hajmining oshishi natijasida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik ta’minoti yaxshilanib, o‘quv jarayoni uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatlari kengaymoqda.

Shuningdek, umumta’lim maktablariga ajratilgan mablag‘larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ta’lim tizimining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Qashqadaryo viloyatida har bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan ta’lim xarajatlari ko‘rsatkichining tahlili hududlar kesimida moliyalashtirish darajasi va ta’lim xizmatlari bilan ta’minlanganlik holatini baholash imkonini beradi. Mazkur ko‘rsatkichlarning o‘sib borishi ta’lim sifatini oshirish, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy tenglikni ta’minlash hamda inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois kelgusida mablag‘larni hududlarning demografik va infratuzilmaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib taqsimlash,

har bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar samaradorligini oshirish ta’lim tizimini yanada takomillashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Атажонов М. Андижон вилояти қишлоқ жойларида ижтимоий инфраструктура тизимининг ҳудудий таркибини такомиллаштириш. Андижон. Ҳаёт нашри-2020”, 2022.- 145 б.

2. Nurmatov A.U. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari infrastrukturasini o‘rganishda xorijiy va milliy ilmiy yondashuvlar // “Geodeziya, kartografiya va geoinformatika” Ilmiy-texnik jurnal. 2026-yil 3-son. B. 334-343

3. Karakulov N.M., Allayorov R.X., Xidirov M.Sh. Qashqadaryo viloyatida aholiga hizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlanishi va hududiy joylashuv masalalari // Geografiya fani va ta’limining zamonaviy muammolari. Respublika ilmiy - amaliy konferensiya materiallari. – T., 2015. – B. 186-188.

4. Nurmatov A.U, Mustafayeva Z.T. Ta’lim infrastrukturasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillarni baholash metodlari // “Geodeziya, kartografiya va geoinformatika” Ilmiy-texnik jurnal. 2026-yil 3-son. B. 325-334.

5. Qurbonov Sh.B. O‘zbekiston qishloq tumanlari rivojlanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari // g.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taq. et diss. – Toshkent, 2017. – 163 b.

6. Safarova N.I., Altibayeva M.B., Sodiqjonov B.F. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari hududiy joylashuvi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar // “O‘zbekistonda geografiya fanining dolzarb masalalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Termiz, 2020. – B. 123 – 125.

7. Soliyev A.S., Nazarov M.I., Qurbonov Sh.B. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: Mumtoz so‘z, 2010. - 348 b.

8. Qashqadaryo viloyati xalq ta’limi boshqarmasi axborot byulleteni, 2024-yil.

9. Qashqadaryo Statistika qo‘mitasining ma’lumotlari https://qashstat.uz/

10. O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami. Statistik to‘plam. – T., 2023. 213 b.